



O'ZBEK VA RUS TILLARIDA OT YASALISH USULLARINING SOLISHTIRMA TAHLILI

*Andijon davlat chet tillari institute Roman-german va slavyan tillari fakulteti
rus tili nazariyasi va amaliyoti 101-guruh talabasi*

Hoshimova Gulhayo Zohidjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va rus tilida ot yasalishining lingvistik tahlili haqida so'z ketgan. Bu jarayon har ikki tilning lug'aviy boylligini kengaytiradi. Har bir til o'zining lug'aviy, morfologik va sintaktik tahliliga ega. Shuning uchun ham quyida turli usullar orqali yasalgan yangi otlar namunasi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ot, affiksatsiya, morfologik, sintaktik, kompozitsiya, qiyosiy tahlil, tipologik tahlil semantik usul, solishtirma usul

Аннотация: В данной статье рассматривается лингвистический анализ словообразования имён существительных в узбекском и русском языках. Этот процесс расширяет лексическое богатство обоих языков. Каждый язык обладает своей лексической, морфологической и синтаксической системой. Поэтому ниже приведены примеры новых существительных, образованных разными способами.

Ключевые слова: существительное, аффиксация, морфологический, синтаксический, композиция, сопоставительный анализ, типологический анализ, семантический способ, сравнительный метод.

Annotation: This article discusses the linguistic analysis of noun formation in Uzbek and Russian languages. This process enriches the lexical resources of both languages. Each language has its own lexical, morphological, and syntactic



system. Therefore, examples of newly formed nouns created by different methods are provided below.

Keywords: noun, affixation, morphological, syntactic, composition, comparative analysis, typological analysis, semantic method, contrastive method.

So‘z yasalishi har qanday tilning ichki rivojlanishining asosiy manbalaridan biridir. Bu jarayon tilning lug‘aviy boyligini kengaytirish, yangi tushunchalarni ifodalash va jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni til vositasida aks ettirishga xizmat qiladi. Ot yasalishi esa bu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Ot yasalishi — mavjud til birliklaridan morfemik vositalar yordamida yangi ot hosil qilish jarayonidir. G‘afur Jo‘rayev ta‘kidlashicha morfemalarning 2ta asosiy turi mavjud.¹

1)asos semantik yuklamaning egasi hisoblanib, leksik baza bilan uzviy bog‘langan.

2)affikslar-mustaqil qo‘llana olamaydigan,qo‘shimcha semantik yoki grammatik ma‘no anglatuvchi birliklar.O‘zbek tilida otlar 3xil usulda yasaladi. Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi. Yasama otlar **affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya** yo‘llari bilan yasaladi.

1.Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo‘lib, uning yordamida quyidagilar yasaladi:

- shaxs otlari (bo‘yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo‘z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon);

¹ G‘afur Jo‘raev – "Hozirgi o‘zbek adabiy tili", 1-kitob. Nashriyot: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005 Betlar: 126-128



-narsa-qurol otlari (ochqich, o'sma, to'plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon);

-o'rin-joy otlari (bodomzor, O'zbekiston, qarorgoh, ishxona, o'tloq, Paxtaobod); mavhum ma'noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig'ilish, radioeshittirish, odamgarchilik).

2. Kompozitsiya usuli bilan ot yasashda qo'shma otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish. Bu usulda turli so'z turkumlari bir-biri bilan birikadi. Misol uchun :

Kunga(ot)+boqar(fe'l)=kungaboqar(ot);

Achchiq(sifat)+tosh(ot)=achchiqtosh(ot)

3. Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O'zME kabi.

Rus tilida otlarning (существительные) yasalishi so'z yasalish tizimi orqali amalga oshadi. Bu jarayonda mavjud asosga qo'shimchalar qo'shish, ikki yoki undan ortiq so'zlarni birlashtirish yoki boshqa so'z turkumlaridan ot yasash orqali yangi otlar hosil qilinadi. Quyida rus tilida ot yasalishining asosiy usullari keltirilgan:

1. Суффиксальный способ (suffiksal usul)

Bu eng keng tarqalgan usul bo'lib, asosga suffiks qo'shiladi

читать → читатель (kitobxon); учить → ученик (o'quvchi); водить → водитель (haydovchi); работать → работа (ish)

2. Приставочный способ (prefiksal usul)



Rus tilida bu usul kamroq uchraydi. Prefikslar(old qo'shimchalar) odatda otlarning semantik ma'nosini o'zgartiradi: *росток* → *подросток* (o'smir); *бег* → *забег* (startga yugurish); *ход* → *наход* (topilma)

3. Сложение (kompozitsiya)

Bu eng ko'p tarqalgan usullardan biri hisoblanib, ikki yoki undan ortiq so'z yoki asosning qo'shilishi orqali yangi ot hosil bo'ladi:

пар + *ход* → *пароход* (*paroxod*); *самолёт* (*сам* + *летать*); *водоснабжение* (*вода* + *снабжение*)

4. Субстантивация(so'z turkumining o'zgarishi)

Bu usulda sifat yoki fe'l ot sifatida ishlatiladi (ya'ni, grammatik vazifasi o'zgaradi): *дежурный* (sifat) → *дежурный* (ot – *navbatchi*); *старший* (sifat) → *старший* (katta, boshliq sifatida ot).

N. Mahmudov, A. Jo'raevlar quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan:"Rus va o'zbek tillarida ot so'z turkumining yasalish jarayonida bir qancha farqlar mavjud.
2

Birinchi farq -til tipologiyasi. O'zbek tili agglutinative til bo'lib ,so'z yasalishi uchun qo'shimchalar aniq va tartibli qo'shiladi .Rus tilida esa flektiv tillar guruhiga mansub bo'lib,qo'shimchalar ko'p vazifali va umumiy matn mazmuniga bog'liq .

Ikkinchi farq-suffiksali ya'ni affiksali usul .

O'zbek tilida har bir qo'shimcha aniq bir ma'noga ega ,rus tilida esa ayrim qo'shimchalar bir necha ma'nolarni anglatadi.

² N. Mahmudov, A. Jo'raev – "O'zbek tili", darslik (oliY o'quv yurtlari uchun) Nashriyot: O'qituvchi, 2004 Betlar: 135-140



Uchinchi farq- Prefiksatsiya (old qo'shimcha)

Rus tilida keng tarqalgan: за-, на-, под- kabi prefikslar(old qo'shimchalar) bilan yangi otlar hosil qilinadi: забег, наход, подросток. O'zbek tilida prefiks mavjud emas, bu usul ishlatilmaydi.

To'rtinchi farq- Kompozitsiya (murakkab otlar yasash)

O'zbek tilida kompozitsiya asosan so'z birikmalari orqali bo'ladi, rus tilida esa bu murakkab so'zlar ko'rinishida birlashadi.

Beshinchi farq- Konversiya (so'z turkumining o'zgarishi)

Rus tilida bu holat juda ham faol: sifat yoki fe'l ot sifatida ishlatiladi: дежурный, старший, ход. O'zbek tilida cheklangan: ko'proq affiks orqali ot hosil qilinadi: kelmoq → kelish, yozmoq → yozuv

Oltinchi farq- Sintaktik usul

O'zbek tilida faol holatlaridan biri hisoblanib, yangi otlar so'z birikmasi orqali hosil qilinadi: kitob do'koni, o'rmon xo'jaligi

Rus tilida kamroq ishlatiladi, odatda bu ma'nolarni bitta murakkab so'z orqali ifodalaydi: лесничество, домохозяйка.

G'afur Rahmatullayev o'zining ot yasalishiga oid kitobida quyidagilarni ta'kidlagan: "O'zbek tilida ot yasalishi asosan so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida amalga oshadi. Bu qo'shimchalar orqali yangi leksik birliklar vujudga keladi va ular tilning boyishida muhim rol o'ynaydi." O'zbek va rus tillarida ot yasalish jarayoni bir qator umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ularning til strukturasi, grammatik tizimi va yasalish usullaridagi farqlar tahlilni talab qiladi. O'zbek tilida affiksatsiya sodda va tartibli, rus tilida esa murakkab va ko'p qirralidir. O'zbek va rus tillarida ot yasalishining tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki tilning leksik boyligi, grammatik imkoniyatlari va morfologik tuzilmalari o'ziga xos xususiyatlarga ega.



Ot yasalish jarayoni har ikkala til uchun ham leksik birliklar zaxirasini kengaytirish, yangi tushunchalarni ifodalash, so‘z boyligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tili, agglutinativ til sifatida, ot yasalishida aniq va tartibli qo‘shimchalarga tayangan. Har bir qo‘shimcha mustaqil grammatik yoki leksik ma’no bildiradi, bu esa so‘z yasalish tizimini soddalashtiradi. Affiksatsiya, ayniqsa suffiksatsiya, eng keng qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Bundan tashqari, sintaktik usul (so‘z birikmalari orqali ot hosil qilish) ham o‘zbek tilida faol ishlatiladi. Rus tili esa flektiv til bo‘lgani sababli, ot yasalishida ko‘p funksiyali qo‘shimchalardan foydalanadi. Har bir affiks ko‘p hollarda bir nechta grammatik yoki semantik ma’noni bir vaqtning o‘zida ifodalaydi. Rus tilida konversiya, prefiksatsiya, va murakkab so‘z yasalishi (kompozitsiya) keng rivojlangan bo‘lib, bu usullar orqali qisqa, lekin mazmunli yangi otlar hosil qilinadi. Ayniqsa, sifat yoki fe‘l asosidan bevosita ot yasalishi rus tiliga xos bo‘lgan o‘ziga xoslikdir. O‘zbek tilida so‘z yasalishi shaklan aniq va izchil; rus tilida esa ko‘proq semantik va kontekstga bog‘liq. O‘zbek tilida prefiksatsiya mavjud emas, rus tilida esa faol. Rus tilida otlar konversiya orqali yasalishi keng tarqalgan, o‘zbek tilida esa bu usul kam uchraydi. Kompozitsiya usuli rus tilida murakkab so‘z shaklida ifodalansa, o‘zbek tilida bu odatda so‘z birikmasi ko‘rinishida bo‘ladi. Bu tahlillar orqali o‘zbek va rus tillarining so‘z yasalish tizimlarini o‘zaro qiyoslash tilshunoslikda muhim o‘rin tutishini ko‘rish mumkin. Ushbu solishtiruv ayniqsa tarjima nazariyasi, til o‘qitish metodikasi, ikki tilli lug‘atlar tuzishda va til o‘rgatuvchi vositalarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. ³

³ G‘. Rahmatullayev – "O‘zbek tilining so‘z yasalishi" Nashriyot: Fan, 1977 Betlar: 55–100



Foydalanilgan adabiyotlar :

1. G‘afur Jo‘raev – "Hozirgi o‘zbek adabiy tili".
2. N. Mahmudov, A. Jo‘raev – "O‘zbek tili”.
3. G‘. Rahmatullayev – "O‘zbek tilining so‘z yasalishi"
4. Sh. Rahmatullayev – "O‘zbek tili grammatikasi: Morfologiya".
5. Н.Ю. Шведова (ред.) – “Русская грамматика”, Том I